ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ ДЕМОКРАТИК ПАРТИЯСИ

КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ВА БАНДЛИК ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ВИЛОЯТ ҲОКИМЛИГИ

САМАРҚАНД ИҚТИСОДИЁТ ВА СЕРВИС ИНСТИТУТИ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI

SAMARQAND VILOYATI HOKIMLIGI

КАМБАҒАЛЛИКДАН ФАРОВОНЛИК САРИ: ПАРТИЯВИЙ ЁНДАШУВ ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР

мавзусида республика илмий-амалий конференцияси
мақолалар тўплами

26 сентябрь, 2025 йил.

«ILM-FAN-MA'NAVIYAT»
NASHRIYOTI -2025

UDK: 943.75(045)
Т 20
Камбағалликдан фаровонлик сари: партиявий ёндашув
ва амалий ташаббуслар” мавзусидаги республика
илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами (2025 йил 26 сентябрь).
– Қарши. «ILM-FAN-MA’NAVIYAT» нашриёти, 2025. –427 бет.

Масъул муҳаррир:

У.Иноятов – Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Халқ демократик партияси фракцияси раҳбари, Ўзбекистон Халқ демократик партияси Марказий Кенгаши раиси, педагогика фанлари доктори, профессор.

Таҳрир ҳайъати:

О.Иминов, Ф.Шарипов, Ғ.Маҳаммаджанов, А.Қурбанов, Ж.Кабиржанов.

Тақризчилар:

И.Турсунов – ТДИУ, иқтисод фанлари доктори профессор,

Д.Аҳмедов – иқтисод фанлари доктори, профессор

2025 йил 26 сентябрь Ўзбекистон Халқ демократик партияси, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги, Самарқанд вилоят ҳокимлиги, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтибилан ҳамкорликда 26 сентябрь куни Самарқанд шаҳрида “Камбағалликдан фаровонлик сари: партиявий ёндашув ва амалий ташаббуслар” мавзусида Республика илмий-амалий конференцияси бўлиб ўтди.

Илмий-амалий анжуман ялпи йиғилиш билан биргаликда 2 та шўъбада ўз ишини олиб борди. Тадбирда камбағалликни қисқартириш, инсон капиталини ҳар томонлама ривожлантириш, ҳар бир инсонга шароит ва имконият беришдек эзгу ҳаракат ва ташаббусларни тўлиқ қўллаб-қувватлашини, бу йўлдаги режа ва кўрсаткичларга эришиш ўзининг долзарб сиёсий мақсади эканлиги, камбағалликни қисқартириш бўйича давлат ва партия сиёсати самарадорлиги, ҳудудларда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий лойиҳалар натижалари, ёшлар ва хотин-қизларни қўллаб-қувватлашнинг янги механизмлари, фуқароларнинг тадбиркорликка жалб этилиши ва иш ўринлари яратиш орқали даромад манбаларини кенгайтириш, илмий жамоатчилик ва фуқаролик институтларининг бу жараёндаги ўрни ҳақида фикр алмашинилди ҳамда илмий-амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди. Ушбу мақолалар тўпламидан профессор-ўқитувчилар, илмий ходимлар, мустақил тадқиқотчилар, талабалар ва амалиётчилар фойдаланишлари мумкин.

ISBN 978-9910-

© «ILM-FAN-MA’NAVIYAT» nashriyoti, 2025 yil.

yanada rivojlantirish zarur. Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ayollar uchun mo‘ljallangan mikromoliyalashtirish dasturlarini kengaytirish va ularning shaffofligini ta’minlash.
2. Har bir hududda xotin-qizlar tadbirkorligi markazlarini tashkil etish.
3. Innovatsion va raqamli tadbirkorlikni rag‘batlantirish maqsadida maxsus inkubator va akselerator dasturlarini yo‘lga qo‘yish.
4. Ayollar bizneslari uchun marketing, brendlash va eksport bo‘yicha maslahat xizmatlarini kuchaytirish.

Shunday strategik yondashuvlar orqali nafaqat ayollar tadbirkorligi rivojlanadi, balki ularning iqtisodiy mustaqilligi va jamiyatdagi faolligi ham sezilarli darajada ortadi. Shunday qilib, xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash orqali kambag‘allikni kamaytirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda strategik ahamiyatga ega bo‘lib, kelajakda ham bu yo‘nalishda izchil va tizimli ishlarni davom ettirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 – yil 11 – maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirlari” PQ – 5113 son Qarori.
2.“Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва уларнинг жамиятдаги фаоллигини оширишга оид 2022–2026 йилларга мўлжалланган давлат дастури тўғрисида” // Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори, 2022 йил 7 март, №ПҚ–87.
3.“Aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 6 may PQ-2960 son Qarori.
4.www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.
5.www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti.

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI OSHIRISH ORQALI DAVLAT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH VA IJTIMOIY TENGLIKNI TA’MINLASH

Sh.Mirzayeva,
O‘zbekiston Respublikasi,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Real iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligini ta’minlashda mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, ayniqsa, ayollar bandligini oshirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xizmat ko‘rsatish sohasi — iqtisodiyotning eng tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan va ko‘p tarmoqli sektorlaridan biri bo‘lib, u nafaqat yalpi ichki mahsulotga sezilarli hissa qo‘shadi, balki aholi, ayniqsa, xotin-qizlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni mehnat bozoriga keng jalb etish, shuningdek, gender tenglik tamoyillarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. BMT va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlariga ko‘ra, ayollarning ishchi kuchi tarkibidagi ulushi yuqori bo‘lgan davlatlarda ijtimoiy barqarorlik darajasi, oilaviy farovonlik hamda inson kapitali sifati yuqori bo‘lishi kuzatilgan.

Ayni vaqtda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasida ayollarning bandligini oshirish bo‘yicha davlat dasturlari, imtiyozlar va subvensiyalar joriy etilgan bo‘lsa-da, bu borada yechimini kutayotgan muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, hududlararo tengsizlik, kasbga yo‘naltirishdagi sustkashlik, norasmiy mehnat bandligi va gender stereotiplari ayollar imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishda to‘siq bo‘lmoqda.

Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar bandligini oshirishning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihatlari tahlil qilinadi, mavjud muammolarga ilmiy yondashuv asosida yechimlar taklif etiladi hamda davlat siyosatini takomillashtirish yo‘llari asoslab beriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ayollar mehnatiga bo‘lgan talabni rag‘batlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy tenglikni ta’min-lashga ko‘maklashishdan iborat.

Xizmat koʻrsatish sohasi bugungi kunda nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida ham muhim oʻrin tutmoqda. Bu sektor iqtisodiy oʻsishning muhim drayveriga aylangan boʻlib, ayniqsa ayollar bandligi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Jahon bankining ma'lumotlariga koʻra, 2024-yil holatiga koʻra dunyo yalpi ichki mahsulotining 65 foizdan ortigʻi xizmat koʻrsatish sohasiga toʻgʻri kelgan. Ushbu soha ayollar uchun moslashuvchan ish sharoitlari, qisqa muddatli tayyorgarlik va xizmat koʻnikmalariga asoslangan bandlik imkoniyatlarini taqdim etadi.

Oʻzbekiston iqtisodiyotida ham xizmat koʻrsatish sohasi tobora kengayib, 2023-yilda YAIMdagi ulushi 40 foizdan oshgan. Xotin-qizlarning bu sohaga jalb etilishi savdo, sogʻliqni saqlash, ta'lim, turizm va maishiy xizmatlar yoʻnalishlarida ayniqsa sezilarli. Davlat statistika qoʻmitasi ma'lumotlariga koʻra, 2024-yil holatida xizmat koʻrsatish sohasida band boʻlgan ayollar soni 2,1 million kishidan oshgan.

Shunga qaramay, ushbu sohada ayollar bandligini yanada kengaytirishga toʻsqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjud. Eng avvalo, hududlararo tafovutlar muhim omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Qishloq joylarda xizmat tarmoqlari yetarlicha rivojlanmagani sababli, bu hududlarda yashovchi ayollar ish topish imkoniyatlaridan chetda qolmoqda. Bundan tashqari, xizmat koʻrsatish sohasida norasmiy bandlik darajasi yuqoriligi sababli koʻplab xotin-qizlar ijtimoiy himoya va mehnat huquqlaridan mahrum boʻlmoqda. Kasbga yoʻnaltirish tizimidagi kamchiliklar, ayollar uchun moʻljallangan sifatli professional tayyorgarlik dasturlarining yetishmasligi ularning mehnat bozoriga moslashuvchanligini kamaytirmoqda. Shuningdek, gender stereotiplari, ya'ni ayollar faqatgina "yumshoq" xizmatlar bilan cheklanishi kerak degan notoʻgʻri ijtimoiy qarashlar ularning kasbiy oʻsishi va salohiyatini toʻliq roʻyobga chiqarishda jiddiy toʻsiq boʻlmoqda. Moliyaviy resurslarga erkin kira olmaslik ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda katta muammoga aylanmoqda, ayniqsa bank kreditlari va grant dasturlaridan foydalanishda ma'lum darajadagi gender tafovutlar mavjud.

Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, xotin-qizlarning xizmat koʻrsatish sohasida faol ishtirok etishi iqtisodiy oʻsish, ijtimoiy barqarorlik va gender tengligiga xizmat qiladi. Masalan, Shvetsiyada ayollarning mehnat bozorida toʻlaqonli ishtirokini ta'minlash maqsadida davlat bolalar bogʻchalari tizimi keng joriy etilgan boʻlib, bu onalarning ishga qaytishiga qulay sharoit yaratmoqda. Hindistonda "Mahila E-Haat" onlayn platformasi orqali minglab ayollar oʻz mahsulotlarini internet orqali sotish imkoniyatiga ega boʻlishgan. Turkiyada esa KOSGEB dasturi doirasida ayollar biznesiga maxsus grantlar, oʻquv-treninglar va konsalting xizmatlari koʻrsatilib, ular xizmat koʻrsatish sohasida muvaffaqiyatli ish boshlashiga koʻmaklashmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham ushbu xalqaro amaliyotlarni chuqur o‘rganish va milliy kontekstga moslashtirish orqali ayollar bandligini kengaytirishga erishish mumkin. Buning uchun bir qator taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Avvalo, hududlarda xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish muhim. Ayniqsa, oilaviy xizmat klasterlarini shakllantirish, kichik xizmat markazlarini tashkil etish orqali ayollarning ish bilan bandligini oshirishga erishish mumkin. Ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirish borasida esa imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, grant dasturlari va soliq yengilliklarini joriy etish kerak. Xizmat ko‘rsatish sohasiga oid o‘quv markazlari va kasb-hunar kollejlarida zamonaviy ta’lim dasturlari joriy qilinib, ayollar uchun qisqa muddatli qayta tayyorlash kurslari tashkil etilishi lozim. Shu bilan birga, raqamli xizmatlarni rivojlantirish orqali ayollarning onlayn ishlash, elektron savdo va masofaviy xizmat ko‘rsatish sohalariga kirib kelishini rag‘batlantirish talab etiladi.

Bularning barchasi davlat siyosatini xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan holda takomillashtirish, gender tengligini institutsional asosda mustahkamlash va ijtimoiy adolatni ta’minlashga xizmat qiladi.

2024-yil yakuniga ko‘ra, O‘zbekistonda xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirokida xizmat ko‘rsatish sohasi yetakchi o‘rinni egallamoqda. Bu sohaga band bo‘lgan ayollar umumiy band ayollar tarkibining 63 foizini tashkil etmoqda. Bu holat xizmat ko‘rsatish sektori ayollar uchun eng ochiq, moslashuvchan va qulay mehnat yo‘nalishi ekanligini ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekistonda ayollar bandligining tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti (2024-yil yakuniga ko‘ra)[49]

№	Tarmoq nomi	Band ayollar soni (ming nafar)	Umumiy band ayollar tarkibidagi ulushi (%)
1	Qishloq xo‘jaligi	790	24
2	Sanoat	340	10
3	Xizmat ko‘rsatish sohasi	2 100	63
4	Qurilish	60	2
5	Transport va logistika	50	1
6	Jami	3 340	100

Xizmat ko‘rsatish sohasi – ayollar bandligi uchun eng istiqbolli tarmoq bo‘lib, uni rivojlantirish orqali nafaqat ayollarning iqtisodiy faolligi oshiriladi, balki ijtimoiy

[49] Muallif ishlanmasi

tenglikka erishish va davlat siyosatining barqaror yo‘nalishda takomillashishiga zamin yaratiladi. Shaharlik ayollar xizmat ko‘rsatish sohasida yuqori darajada band bo‘lsa-da, qishloq ayollarining bu sohadagi ishtiroki pastroq va ularning katta qismi norasmiy sektorda ishlaydi. Qishloq joylarda infratuzilma yetishmovchiligi, moliyaviy resurslarga kirish imkonining cheklangani, va ko‘nikmalar yetishmasligi asosiy to‘siqlar hisoblanadi.

2-jadval

Shaharlik va qishloq ayollarining xizmat ko‘rsatish sohasidagi bandlik darajasi (2024-yil, foizlarda)[50]

№	Yashash joyi	Xizmat ko‘rsatishdagi bandlik (%)	Norasmiy sektorda ishlovchi ayollar (%)
1	Shaharlik ayollar	68	23
2	Qishloq ayollari	52	45

Xizmat ko‘rsatish sohasini hududiy nuqtai nazardan rivojlantirish va ayollarni rasmiy sektor faoliyatiga jalb etish orqali gender tenglik va ijtimoiy himoyani kuchaytirish mumkin. Ayniqsa, qishloq ayollariga yo‘naltirilgan maxsus dasturlar zarur. Ayol tadbirkorlarning ko‘p qismi moliyaviy ehtiyojlarini oilaviy yordam yoki shaxsiy mablag‘lar hisobiga qoplamoqda. Rasmiy moliyaviy institutlar – banklar yoki davlat grantlaridan foydalanish ko‘rsatkichlari past bo‘lib qolmoqda. Bu holat ayollar tadbirkorligini kengaytirishda moliyaviy resurslarga kirishning cheklanganligini ko‘rsatadi.

3-jadval

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi ayol tadbirkorlar uchun mavjud moliyaviy resurslardan foydalanish[51]

№	Moliyaviy manba	Foydalangan ayollar ulushi (%)
1	Tijorat banki kreditlari	26
2	Davlat grantlari va subsidiyalar	8
3	Oilaviy moliyaviy yordam	38
4	Jamg‘armalar yoki shaxsiy mablag‘lar	28

Ayollarni xizmat ko‘rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb etish uchun moliyaviy tizimni soddalashtirish, genderga yo‘naltirilgan grantlar sonini oshirish va bank xizmatlarida ayollar uchun imtiyozli shartlar joriy etish zarur. Ayollar bandlik

[50] Muallif ishlanmasi
[51] Muallif ishlanmasi

darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarda gender tenglik indeksi ham yuqori bo‘lganini ko‘rish mumkin. Bu holat xotin-qizlarning mehnat bozoridagi faolligi jamiyatdagi ijtimoiy tenglik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. O‘zbekiston bandlik va gender tenglik borasida hali o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ega bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda jadal rivojlanish uchun katta salohiyatga ega.

4-jadval

Ayollar bandligi va ijtimoiy tenglik o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik (Tanlangan davlatlar misolida, 2024-yil)[52]

№	Davlat	Ayollar bandlik darajasi (%)	Gender tenglik indeksi (0–1 oralig‘ida)
1	Shvetsiya	74	0.82
2	Germaniya	70	0.79
3	Turkiya	38	0.65
4	O‘zbekiston	43	0.61
5	Hindiston	28	0.53

Davlat siyosatida ayollar bandligini oshirish ijtimoiy tenglikni mustahkamlovchi asosiy omildir. Xizmat ko‘rsatish sohasi esa bu borada strategik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim. Yuqoridagi tahliliy jadvallar shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasi O‘zbekiston ayollari uchun iqtisodiy mustaqillik, bandlik va ijtimoiy faollikni ta’minlovchi asosiy sektorlardan biridir. Biroq bu sohada barqaror taraqqiyotga erishish uchun hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etish, rasmiy bandlikni kengaytirish, moliyaviy resurslardan foydalanishni soddalashtirish va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ayollar bandligini oshirish davlat siyosatining nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy samaradorligini ham keskin oshiradi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar zamirida har bir fuqaroning, xususan, xotin-qizlarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashi, ularning salohiyati va iste’dodidan to‘laqonli foydalanish, gender tenglikni ta’minlash orqali barqaror taraqqiyotga erishish maqsadi yotadi. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasi – xotin-qizlar uchun eng qulay va moslashuvchan tarmoqlardan biri bo‘lib, u bandlikni oshirish, ijtimoiy tenglikni kuchaytirish hamda iqtisodiy o‘sishga sezilarli hissa qo‘shadigan sektor sifatida ajralib turadi.

[52] Muallif ishlanmasi

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil holatida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasida 2,1 milliondan ortiq ayollar band bo‘lib, bu ularning umumiy bandlikdagi ulushining 63 foizini tashkil qilmoqda. Biroq bu sohadagi imkoniyatlar hali to‘liq safarbar etilmagan. Hududiy nomutanosibliklar, norasmiy bandlik darajasining yuqoriligi, moliyaviy resurslarga kirishdagi cheklovlar va gender stereotiplari bu jarayonning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, ayollar bandligi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda ijtimoiy tenglik darajasi yuqori, iqtisodiy o‘sish esa yanada barqaror kechadi. Shu bois, xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar bandligini oshirish nafaqat ijtimoiy adolatni qaror toptiradi, balki inson kapitalidan oqilona foydalanish orqali davlat siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Quyida xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar bandligini oshirish orqali davlat siyosatini takomillashtirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga qaratilgan muhim takliflar keltirilgan:

1. Qishloq joylarda ayollar bandligini oshirish uchun mini-servis markazlar, oilaviy xizmat klasterlari va ko‘chma xizmat ko‘rsatish punktlari tashkil etilishi lozim. Bu bilan hududlararo bandlikdagi tafovutlar kamayadi.
2. Xizmat ko‘rsatish sohasida ishlovchi ayollar orasida norasmiy bandlik darajasi yuqori. Ularga rasmiy bandlikka o‘tishni rag‘batlantiruvchi mexanizmlar – soddalashtirilgan ro‘yxatdan o‘tish tartibi, soliq imtiyozlari va ijtimoiy sug‘urta tizimiga integratsiya bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi kerak.
3. Xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘yicha biznes boshlamoqchi bo‘lgan ayollar uchun imtiyozli mikrokreditlar, startap grantlar, subsidiyalar va kechiktirilgan to‘lov asosida moliyaviy yordam mexanizmlari yo‘lga qo‘yilishi lozim.
4. Xizmat ko‘rsatish sohasiga mos zamonaviy kasb-hunar kurslari, qisqa muddatli qayta o‘qitish markazlari, usta-shogird tizimini qayta jonlantirish orqali ayollar mehnat bozoriga tez va samarali moslasha oladi.
5. Elektron savdo, onlayn xizmatlar, masofaviy ish platformalari orqali ayollar uchun xizmat ko‘rsatishning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirish mumkin. Bu ayniqsa uy sharoitida ishlash imkoniyati cheklangan xotin-qizlar uchun muhim imkoniyat yaratadi.
6. Ayollarni an’anaviy bo‘lmagan xizmat yo‘nalishlariga (masalan, IT xizmatlari, texnik servis, dizayn va boshqalar) jalb etish uchun ta’limda, OAVda va jamoatchilik orasida ijobiy stereotiplar shakllantirilishi kerak.
7. Barcha xizmat yo‘nalishlarida gender tahliliga asoslangan rejalashtirish, budjetlashtirish va monitoring tizimini joriy etish orqali siyosatning ayollarga nisbatan ta’sirini real baholash mumkin bo‘ladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar bandligini oshirish — bu faqat bandlik masalasi emas, balki iqtisodiy adolat, ijtimoiy barqarorlik va inson kapitalini to‘liq ro‘yobga chiqarish vositasi hamdir. Ayollar salohiyatidan samarali foydalanish orqali O‘zbekiston davlat siyosatida yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilishi, ijtimoiy tenglikning yanada mustahkamlanishi hamda xalq farovonligining oshishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 – yil 11 – maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirlari” PQ – 5113 son Qarori.
2.“Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва уларнинг жамиятдаги фаоллигини оширишга оид 2022–2026 йилларга мўлжалланган давлат дастури тўғрисида” // Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори, 2022 йил 7 март, №ПҚ–87.
3.“Aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 6 may PQ-2960 son Qarori.
4.www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.
5.www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti.

СТРАТЕГИИ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ СЕКТОРА УСЛУГ ПО СОКРАЩЕНИЮ БЕДНОСТИ И ОБЕСПЕЧЕНИЮ ХОРОШИХ РАБОЧИХ МЕСТ

Химматова Гульноза,
Ферганский государственный университет
Экономика Студентка 2 курса магистратуры

В условиях глобализации и рыночной экономики сокращение бедности, по-вышение занятости и обеспечение социального благополучия являются одними из основных направлений государственной политики. В последние годы в Республике Узбекистан реализуются значительные реформы в этом направлении. В частности, особое внимание уделяется обеспечению экономического роста, сокращению бедности и повышению продуктивной занятости посредством развития сферы услуг.

Совершенствование политики на рынке труда и системы оплаты труда в Узбекистане является одним из важнейших условий эффективного решения

S.Mamurov. O‘zbekistonda xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish yo‘llari..... 216
G‘.Ergashev. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishda bandlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlar..... 220
Z.Artikov. Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirishda savdo xizmatlarining o‘rni..... 226
Z.Artikov. Kambag‘allikni qisqartirishda xizmat ko‘rsatish sohasidagi investitsiyalarning samaradorligi..... 231
A.Raxmatov. Mintaqalar barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va bandligini ta’minlashning metodologik asoslari..... 236
A.Raxmatov. Turizm sohasida kadrlar tayyorlashning metodologik asoslari va uni kambag‘allikni qisqartirish siyosati bilan uyg‘unlashtirish yo‘llari..... 241

2-ШЎЪБА. КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ВА БАНДЛИК СОҲАСИДА ДАВЛАТ СИЁСАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ҲАМДА САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШ

Sh.Mirzayeva. Innovatsion g‘oyalar va ijtimoiy loyihalar orqali xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash: kambag‘allikni kamaytirishdagi strategik yondashuv..... 248
Sh.Mirzayeva. Xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar bandligini oshirish orqali davlat siyosatini takomillashtirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash..... 254
Г.Химматова. Стратегии повышения конкурентоспособности сектора услуг по сокращению бедности и обеспечению хороших рабочих мест..... 260
A.Akbarov. Tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida innovatsion g`oyalarni rivojlantirish aholi turmush farovonligini oshirishdagi o`rni..... 266
Q.Tursunboyev. Transport xizmatlari sohasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash masalasi..... 269
A.Sa’dullayev. Kambag‘allikni yengishda psixologik maslahat va qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati..... 280
Sh.Ibrogimov. Hududlarda yashil iqtisodiyot asosida bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish..... 283
M.Oktamov, Ezoza Fayzullayeva. Innovative approaches to improving efficiency in the labor market..... 286
А.Умаралиев. Камбағалликдан фаровонлик сари: партиявий ёндашув тошкент вилояти мисолида..... 290